

O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta

Maxsus Ta`lim Vazirligi

Buxoro davlat universiteti

Pedagogika fakulteti

Musiqiy ta`lim yo`nalishi

“MUSIQA O`QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI”
fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Interfaol metodlar va ularning tavsifi.

Bajardi:

4-M guruh talabasi Saidova Saida

Tekshirdi:

O`qituvchi J.T.Yarashev

BUXORO-2016

Reja:

Kirish

- 1. Pedagogik faoliyatni pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar yordamida olib borishning ahamiyati.**
- 2. Oliy ta'limda qo'llaniladigan asosiy interfaol metodlar.**
- 3. “6*6*6 metodi», “Ilon izi” texnologiyasi va “Aqliy hujum” metodi.**
- 4. “Insert” strategiyasi, “Venn diagrammasi” metodlari va “Sinkveyn” texnologiyasi.**

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Chunki mamalakatimiz tez sur'atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy-siyosiy mavqei kundan-kun ortib bormoqda. Lekin ijtimoiy sohada, ayniqsa, ta'lim-tarbiyada umumiy taraqqiyotdan orqada qolish hollari sezilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish bilan bunday holga barham berish mumkin. Quyidagi holatlar ilg'or texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishning dolzarbligini ko'rsatib beradi:

- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarish uchun, ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi;
- an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatidagina emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi yoki ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi rolini o'zgartirish zarurligi;
- fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;
- kishilik jamiyati taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;
- Barkamol avlodni tarbiyalash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisblangan ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyati nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallashini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan bizga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamalakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Quyida ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

OLIY TA'LIMDA

QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR:



So'ngi 10-15 yil davomida oliyta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. "Qanday usullar interfaol metodlar deb sanaladi? Boshqa usullardan ularning farqi nimada? degan

savollarga javob berishda bu so'zning ma'nosini anglash zarur. "Inter" so'zi lotincha bo'lib, "orada", "o'rtada" degan ma'nolarni anglatadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" (Toshkent, 2006, 2-jild. 217-218-betlar) da unga quyidagicha ta'rif berilgan: "1) oraliq holat. Oraliqda joylashgan. O'rtada; 2) umumiylik, umummaqbullik, o'zaro bog'liqlik." Ushbu ta'riflardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, muloqot jarayonida har ikki tomonga maqbullik, o'zaro faollik, bog'liqlik, bir-birni qo'llab-quvvatlash, to'ldirish tuzatish kabi holatlar interfaol metodlar asosini tashkil etadi.

Interfaol metodlardan foydalanishda o'quv materialining mazmuni o'qituvchi tomonidan qayta ishlab chiqilishi, o'quvchiga murakkab tuyulgan terminlarni izohlab berishi, uning ongida aqliy faoliyatini uyg'otish hamda kuchaytirish talab qilinadi.

Oliy ta'limda qo'llaniladigan asosiy interfaol metodlar:

Aqliy hujum («Mozgovaya ataka») metodi

Bahslar

Muzokara

Taqdimot (muzyorar)

Pinbord ("pin"-mustahkamlash, "board"-doska)

Insedent

Zanjirmetodi

Klaster ("g'uncha", "bog'lam"-axborotlarni yoyish)

Loyihalar metodi

"Qarama qarshi munosabat" metodi

"Qarorlar shajarasi"metodi

"Inter"metodi

"Bilaman. Bilishnixohlayman. Bilib oldim" metodi

Bumerang

Muloqot

Muammo yaratish va yechimini topish

Skarabey-fikriy bog'liklik, mantiqxotira rivojlanishi

"Shaxsiyfikr"metodi

FSMU texnologiyasi (fikr bayoni, sabab ko'rsatish, misol keltirish, umumlashtirish)

Ayrim interfaol usullarning qisqacha bayoni:

Pinbord usuli

(inglizchadan: pin - mustahkamlash, board - doska)

Bu o'qitish usulining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbatlari amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari- rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: o'quvchilarda muloqat yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas,

balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

Pinbordning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va tarkibi	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchi
1- bosqich Tayyorlov	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi, natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi (muzokarani) savolvaasosiyfikrlarnishakllantiradi.	
2- Bosqich Mavzuni ishlashi	Mavzu tuzilishini aniqlaydi, o'z mulohazalarini bildiradi va o'quvchilarga o'z nuqtai nazarlarini bayon etishni taklif etadi. «Pinbord» usulin tushuntiradi. Munozara boshlanishini tezlashtirish uchun bir nechta tayyorlangan savollarni berishi mumkin.	Munozara vaqtida mavzuni ishlab chiqadilar.
3- Bosqich O'z xulosalarini yozma	Kuzatadi	Munozara davomida shakllangan fikrlarini asosiy xulosalar ko'rinishida qog'oz varog'i yoki kartochkaga yozib doskaga ilib qo'yadilar

bayon etish		
4-Bosqich Umumlashtirish	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'mak berish.	O'quv guruhining 2-3 a'zosi o'rtoqlari bilan maslahatlashgan holda mazmuniga qarab ma'lumotni tartiblaydilar va guruhlariga bo'ladilar. Strelka, chiziq va boshqa belgilar yordamida ularning o'zaro munosabatini: bir butun yoki qarama-qarshi nuqtai nazarni shakllantiradilar
5-bosqich Yakun yasash, tahlil qilish, baholash	O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'ziga baho berishni amalga oshirishlari mumkin.

"Zanjir" metodi va uni qo'llash metodikasi:



- Mantiqiy ketma-ketlikka asoslaniladi;
- Oddiydan murakkabga borgani sari savollar bir-birini to'ldiradi;
- Muammoli vaziyatlar sodir bo'ladi;
- Talabani mustaqil fikrlashga

undaydi;

- Qaytar aloqa o'rnatiladi;
- Ijodiy muhit shakllanadi;
- Faol harakat vujudga keladi;
- Hamfikrlik asosida do'stona munosabatlar, qaror topadi;

"Shaxsiy fikr" metodi - talabalar tomonidan yangi bilimlar o'zlashtirishida, olgan bilimlarini mustahkamlashda, ongda hosil bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash va tegishli xulosalar chiqarishda shaxsiy fikr metodi yaxshi natija beradi.

Hozirgi paytda talabalar ko'proq bilimni mustaqil ishlar bajarish jarayonida egallamoqdalar. Mustaqil o'qib o'rgangan materiallarni qayta ifodalash amalga tatbiq etishda ushbu metoddan foydalanilganda talabalarning ongli va faol o'zlashtirishlari amalga oshadi.

Ilmiy, nazariy, amaliy va muammoli o'quv materiallarini tahlil qilish jarayonida talabalar alohida kichik guruhlarda yoki ikkiga bo'lingan holda o'z yondashuv va munosabatlarini bayonetadi. Boshqalar bu fikrni inkor etadigan nuqtai nazarlarini ilgari suradi. Dalil va isbotlar keltiradi. Qarshi fikr aytganlari o'z tomoniga o'tkazishga harakat qiladi. Ekspert guruhi qaysi g'oyaning ustunligini aniqlash maqsadida so'rov varaqasi to'ldiradi. Qaysi bir guruh qaysi g'oyaning ustunligini aniqlash maqsadida so'rov varaqasi to'ldiradi. Qaysi bir

guruh ortiq ovoz olsa, ularning fikri haqiqatga yaqin deb hisoblanadi. Talabalar (mikroguruhlarining faolligiga qarab keltirilgan dalil va isbotlarining haqiqatga yaqinligiga mos holda reyting qo'yiladi).

“Rolli o'yinlar metodi” texnologiyasi.

Rolli o'yinlar metodining mohiyati shundan iboratki, unda o'quvchilar boshqa kishining roliga kirib, uning «ichida» harakat qiladilar. O'yinda o'quvchilarga asosan tugallanmagan vaziyatlar beriladi. Ular qaror qabul qilishlari, munozarali holatlarni bartaraf etishlari yoki taklif etilgan vaziyatlarni nihoyasiga yetkazishlari kerak bo'ladi.

Rolli o'yinlar o'quvchilarda boshqalarni tushunish, ularga xayrxohlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Boshqalar rolini o'ynash orqali, o'zgalarning o'y-xayollarini tushunish oson. Rolli o'yinlar o'quvchilarga turli vaziyatlarda o'zini tuta bilishning modellarini berishi mumkin.

Darslarda rolli o'yinlarini qo'llash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. *O'yinli vaziyatni tanlash.* Rolli o'yinlar uchun ko'plab materiallar mavjud. Ular individual qiyinchiliklarni (masalan, Internet xizmati provayderi bilan muloqot qilish) va muammoni hal qilish vaziyatlarini (masalan, dasturiy mahsulot buyurmachisi bilan bahs) o'z ichiga oladi. O'yinlar maxsus savollar yoki muammolarni hal etishda qo'llanilishi mumkin. Masalan, yosh bolalarga Internet tarmog'ining barcha ma'lumotlariga kirishga ruxsat berish kerakmi yoki yo'qmi, degan savolga javob topishda o'yin metodidan foydalanish mumkin. Va nihoyat, o'yin jarayonida o'quvchilardan intervyu olish, muzokara olib borish, tadqiqot olib borish va qaror qabul qilish, o'zini himoya qila olish ko'nikmalari rivojlanadi.

2. *Tayyorlash.* O'quvchilar vaziyat yoki muammo bilan tanishadilar va ular o'rtasida rollar taqsimlanadi.

3. *Ishtirokchilarni tanlash.* O'qituvchi rolga o'quvchilarni o'zi tanlashi, guruhda o'zlari taqsimlashlariga imkon berishi yoki xohlovchilarni taklif etishi mumkin.

Rolli o'yinlarda ishtirok etmayotgan o'quvchilar kuzatuvchi bo'lishlari yoki boshqa rolni

o'ynashlari mumkin.

4. *O'yinni o'tkazish.* O'quvchilar o'yin doirasida o'zlarini tutish usulini o'zlari tanlaydilar. Bunda, albatta, berilgan vaziyatga tushganda inson o'zini qanday tutishi mumkinligi asos qilib olinadi. O'yinning borishiga o'qituvchi aralashmasigi lozim. Ayrim hollarda o'yin tugagandan keyin rollarni almashib, yana bir bor o'yin o'tkazish foydadan xoli bo'lmaydi.

5. *Muhokama* O'yin muhokama qilinishi va baholanishi kerak. Ishtirokchilar va kuzatuvchilar o'yinda bo'lib o'tgan voqealarni va bu voqealar nima uchun ro'y berganligini muho kama qilish va tahlil etish imkoniyatlariga ega bo'lishlari lozim.

«Besh minutlik esse» texnologiyasi

Yozma vazifaning ushbu turi dars oxirida qo'llaniladi. Uning maqsadi o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bilimlariga xulosa yasashni o'rgatish bo'lsa, o'qituvchi uchun o'quvchilar ongida nimalar ro'y berayotganligini bilishdan iborat. O'quvchilardan quyidagi ikki vazifani: mazkur mavzu bo'yicha nimalarni bilib olganliklari va o'zlari javob ololmagan biror savolni yozib berish so'raladi. O'qituvchi yozma ishlarni darhol yig'ib oladi, ularni tahlil etib, natijalaridan keyingi darsni rejalashtirishda foydalanishi mumkin.

Klaster usuli

Ushbu metod o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiyfikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuquro'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi.

Klasterlarga ajratish- o'quvchilarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so'zi g'ujm, bog'lam ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni davat, anglash va

mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga etib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Biror mavzu bo'yicha klasterlar tuzishdan bu mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofikdir.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

1. Katta varag' qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi;
2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi;
3. Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash;
4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;
5. Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Klaster tuzishda guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtirok etishi, shu guruh uchun g'oyalar o'zagi bo'lib xizmat qiladi.

“Klaster” metodi. Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erki, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etad. “Klaster” metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

“Klaster” metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki gurux asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida

foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarni majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi.

3. Hamkorlikda o'qish. O'qish kichik guruhlarda olib borilganda samarali bo'lishi keyingi vaqtlarda ko'pchilik tomonidan tan olinmoqda. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishning turli ko'rinishlari mavjud.

O'qituvchi materialni o'rganishni juftliklarda tashkil etishi mumkin. Bunda material 2 o'quvchi tomonidan o'rganiladi, muhokama etiladi va natija bayon etiladi.

Bunday ishlarni kichik guruhlarda tashkil etish ham mumkin. Guruhda 4-7 kishilik kichik guruhlar tashkil etiladi va natija bayon etiladi va har bir guruhga ma'lum topshiriq beriladi. Topshiriqni birgalikda guruhdagilar o'rganib muhokama etishadi. So'ngra natijani guruhning bir a'zosi umumiy guruhga yetkazadi. Guruhdagilar uning ma'lumotini to'ldirishi, qo'shimcha qilishi, izoh berishi ham mumkin.

Kichik guruhlar bilan alohida mavzularni o'rganishda yoki bir mavzuning turli qismlarini o'rganishda ham foydalaniladi.

Munozaralar o'tkazish. Dars davomida beto'xtov o'qituvchining so'zlashini yoki ayrim o'quvchilar fikr almashinish usulini munozaradan farq qila olish kerak.

Munozara faqat o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot ko'rinishida o'tsa samarasi kam bo'ladi.

O'quvchilar o'rtasida tortishuv kelib chiqmaydi, izlanish kam bo'ladi. Fikr almashinish o'quvchilar o'rtasida sodir bo'lsa, uni o'qituvchi turli ko'rsatma, savol va boshqa usullar bilan boshqarib tursa munozaraning foydasi ko'p bo'ladi.

Dj.T.Dillon tomonidan munozaraga rahbarlik qilishda qo'llaniladigan 4 topshiriq bayon etilgan.

1. **Tasdiqlash.** Munozarani boshqaruvchi shaxs ma'lum muammoni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi g'oyani o'rta tashlaydi. Tasdiqlovchi fikrni birmuncha yumshoqroq, bo'shroq, bayon etib, munozaraga chorlaydi. Munozara vaqtida "Siz shuni tasdiqlaysizmi,", yoki "Siz _____" deb aytsangiz, lekin Po'lat deb fikringizga qo'shilmayapti kabi ko'rsatmalar berib boradi. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi munozara jarayonini sinchkovlik bilan kuzatadi va boshqaradi. Talabalar fikridan munozarani qizitish uchun foydalanadi.

2. **Savollar.** Talabalar o'qituvchi savollariga nisbatan o'z kursdoshlari savolini katta tashabbus va faollik bilan muhokama etishga moyil bo'ladilar.

3. **Ishoralar.** Munozara jarayonida biror fikrni aytib, tashabbusni yoki fikrni bo'g'ib qo'ymay, ovoz chiqarmasdan, turli imo-ishora bilan munozarani boshqarish kerak. O'qituvchining ko'zlarini katta ochib, gapiruvchini ko'rsatib tinglashga ishora etishi, tortishuvchi tomonlarni ko'rsatib, fikrlarni taqqoslashga ishora etishi, fikrni oxirigacha eshitishi ishora bilan ko'rsatishi va boshqalar.

4. **Tinch turish.** Savolni o'rta tashlagandan so'ng ma'lum vaqt tinch turib, fikrlash uchun vaqt berish kerak.

Munozara vaqtida o'qituvchi quyidagicha savollar bilan talabalrga murojat etishi mumkin:

- Aytgan gapingizga misol keltirsangiz.
- Nima uchun? Shundaymi?
- Aytganngiz Sattorni gapiga zid emasmi?
- Siz hammaning fikriga qo'shilasizmi?

Asosiy maqsad muhokama etilayotgan masala bo'yicha talabalarning fikrlashini quvvatlash, fikrlarga to'g'ri yo'nalish berishdir.

Munozara ishtirokchilari quyidagilarga e'tibor berishlari kerak:

1. Munozarada shaxsiy munosabatlarni namoyon etmay qo'yilgan muammoni yechish kerak.

2. Uzoq gapiravermay, boshqalarning gapirishini ta'minlash kerak.

3. Har bir so'zni o'ylab, muhokama etib, hissiyotni boshqarib, gapirish va gapni maqsadga aniq yetishiga erishish kerak.

4. Muallif nuqtai nazarini tushunishga intilishi, unga hurmat bilan qarash.

5. Aytilganlarni buzmay, asabiy rad etmay, odilona qarshi fikr bildir.

6. Ko'p so'zlab yuborma.

7. Yaxshi bilmagan soha bo'yicha fikr aytishga intilma.

8. Faqat munozaraga oid fikrni ayt, o'z bilimdonligini ko'z-ko'z qilishga intilma.

9. Biror odamga yaxshi ko'rinish yoki biror odamni kamsitishga intilib gapirma.

Klasterlarga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur.

1. Xayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e'tibor bermasdan yozib borish.


2. Orfografiya va boshqa omillarga e'tibor bermaslik.

3. Vaqt tugaguncha, iloji boricha to'xtalmasdan yozish.

4. Iloji boricha ko'proq bog'lanishlar hosil qiliishga harakat qilish.

5. G'oyalar va so'zlar sonini cheklab qo'ymaslik.

Quyida misol sifatida «Musiqqa» tushunchasini o'rganishda qo'llaniladigan klaster berilgan. Uni dars jarayonida yanada to'ldirish va kengaytirish mumkin,



"FSMU" metodi - munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminarlari yakunida o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin. Bunda talabalar o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazish, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga egallagan bilimlarini baholashga, tahlil etishga hamda tinglovchilarda bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

F - fikringizni bayon eting

S - fikringizni bayoniga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

F - fikringizni bayon eting	S- fikringizning bayoniga sabab ko'rsating	M- ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring	U- fikringizni umumlashtiring

«Zakovatli zukko» metodi - mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda talabalarni fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega, "Zakovatli zukko" metodi talabalarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagi bo'lgan talabalar uchun qulay sharoit yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan

to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida talabalarning tafakkur tezligi aniqlanadi. Ballar belgilanishi talabalarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Metod talabalar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

Munozara (Muhokama) uslubi

Ko'p hollarda seminar mashg'ulotlari orada o'qituvchi monologlari bilan bo'linadigan talabalar monologlari shaklida o'tadi, qolgan o'quvchilar esa shu paytda zerikib o'tiradilar. Shuning uchun darsda Munozara usulini qo'llash barcha o'quvchilarning faolligini oshirib, zerikishlarga yo'l qo'ymaydi.

«Munozara»ni o'tkazish usuli:

1. Yetakchi munozara mavzusini tanlaydi va qatnashuvchilarni taklif qiladi;
2. Yetakchi qatnashuvchilarga muammoni «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi;
3. «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlanadi. Bu bosqichda guruh qatnashchilarining har biri o'z fikrini bildirishiga sharoit yaratiladi;
4. Yetakchi ikkinchi bosqichga o'tishdan avval qisqa tanaffus e'lon qiladi. Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi;
5. Tahlil orqali qo'yilgan vazifani eng maqbul yechimini topishga harakat qilinadi.

O'qituvchi munozara paytida quyidagi savollarni berishi mumkin:

- Siz misol keltira olmaysizmi?
- Nahotki! Nima uchun?
- Bu fikr Aziz aytgani bilan qanday qilib moslanadi?
- Demak, siz Lolaning fikriga qo'shilasiz?

- Siz menga aytmang, Akbarni ishontirishingiz lozim!
- Sizning xayolingizga _____ ekanligi to'g'risidagi fikr kelmadimi?

O'quvchilar fikrlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, unga munosabat bildirishga shoshilmaslik munozara yuritishning qat'iy qoidasi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga o'kituvchi fikrlarning mantiqsizligiga, yaqqol qarama-qarshi, asossiz fikrlarning bildirilishiga ham yo'l qo'ymasligi lozim. Odobli luqma bilan fikrlarning asosililigini, aytilgan yoki qo'llab-quvvatlangan fikrning to'g'riligini oydinlashtirib, ularda aytilgan g'oyaning mantiqiy oqibati to'g'risida fikrlashga qiziqish uyg'otish zarur.

Muzyorar metodi.

Ko'pchilik odamlar notanish vaziyatda (yangi sinf yoki yangi maktabda, kursning boshlanishida) bo'lganlarida o'zlarini jur'atsiz sezishadi. Ko'pincha bir-birlarini bilishmaydi. Agar xech bo'lmaganda bir kishi bilan tanish bo'lsalar, ular birga bo'lishadi. Shuning uchun o'qituvchi (yoki boshlovchi) o'quvchilarga o'zlariga ishonch hissiyotini beradigan do'stona muhitni va ular o'zlari o'rganishlari kerak bo'lgan narsaga diqqatlarini qaratadigan vaziyatni yaratishi kerak. Bunda Muzyorar usulidan foydalanish mumkin. Bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi «to'siq»ni yo'qotishga qaratilgan usul.

Muzyorarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. Taqdim etish.

O'quvchi yoki ishtirokchilardan ular o'zlarini tanishtirishlari va o'zlari to'g'risida muayyan axborot berishlari suraladi. Ular taqdim etgan axborot saylanmasi sinf yoki kurs xususiyatiga bog'liq. Bu quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ism-sharifi
- yashash joyi
- qiziqishi
- fanlarga munosabati

Bu axborot jadval shaklida katta qog'oz varag'iga yozib jamlansa yaxshi bo'ladi.

Bu usul kam vaqtni oladi (har o'quvchiga 1-2 minut), biroq undan 30 kishidan ko'p guruhlarda foydalanib bo'lmaydi. Bizda ular haqida axborot kam bo'lgan, ulardagi odamlar bir-birlarini yaxshi bilmaydigan guruhlar uchun yaxshi, biroq u har doim ham guruh a'zolarining yaxshi tanishishlariga kafolat bermaydi.

2.Intervyu.

Bir-birlarini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, ularga tanishib olishlari uchun 5-7 minut vaqt beriladi. So'ng juftlikning har bir a'zosi butun guruhga o'z sherigi to'g'risdagi ma'lumotlarni biror qiziqarli faktni qo'shgan holda taqdim etadi.

Bunda guruhdagi har bir kishi bitta odam bilan tanishishi kafolatlanadi. Bu usul ishtirokchilarga dadillik hissini beradi, biroq uni 25 kishidan ko'p guruhda qo'llash mumkin emas.

3.Jadvallar.

Har bir ishtirokchiga flomaster va katta qog'oz varog'i beriladi. Qog'oz to'rt qismga bo'linib, har biriga quyidagi axborotni yozish topshiriladi:

- yuqoridagi chap burchakda: o'zini bir so'z bilan tasvirlasin
- yuqoridagi o'ng burchakda: nima bilan faxrlanishini yozsin
- pastdagi chap burchakda: o'zi haqida qandaydir bir sirni oshkor kilsin (bu jiddiy sir bo'lishi majburiy emas, biroq shunday axborot bo'lsinki, u haqda ishtirokchilardan hech kim bilmasin)

- pastdagi o'ng burchakda: o'z xobbisini chizib bersin.

(Jadvalning katakchalarini guruh xususiyatiga qarab o'zgartirish mumkin)

Hamma ishtirokchilar ishni tugatganlaridan keyin ular jadvalni oldlarida ushlab zalning o'rtasiga chiqishadi. U yoq- bu yoqqa o'tib ishtirokchilar bir-birlari bilan tanishadilar. Ishtirokchilar o'z ismlarini jadvallarga yozib, ularni devorga ilib qo'yishadi.

«T- chizmalar» usuli.

T-chizma munozara vaqtida qo'shaloq javoblar (ha/yo'q, tarafdor/ qarshi) yoki taqqoslash, zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Masalan, ta'limning an'anaviy va noan'anaviy shakli haqidagi matn o'qilganidan so'ng, birinchi guruh T- chizmani chizib, uning chap tomoniga an'anaviy ta'limning afzalliklarini berilgan vaqt davomida ko'rsatib berishadi. So'ngra shuncha vaqt ichida bu fikrga qarshi bo'lgan fikrlarni, ya'ni an'anaviy ta'limning kamchiliklarini ko'rsatib o'tishadi. Ikkinchi guruh xuddi shunday chizmada noan'anaviy ta'limning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilishadi. Guruhlarning chizmalari taqqoslanib, so'ngra butun sinf bilan T-chizma tuziladi va muhokama etiladi. Buni quyidagi shaklda berish mumkin:

Ta'limning an'anaviy shakli		Ta'limning noan'anaviy shakli	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
+	-	+	-

«6*6*6 metodi» texnologiyasi.

Bu shunday metodki, unga ko'ra 36 ishtirokchi ma'lum bir vaqt mobaynida biror bir masalani muhokama qilib, ko'pchilik guruh a'zolarining masalaga bo'lgan munosabatlarini bilib olish mumkin.

Har biri 6 kishidan iborat bo'lgan 6 ta guruhda ma'lum bir vaqt mobaynida o'qituvchi tomonidan qo'yilgan muammo muhokama qilinadi. Shundan so'ng o'qituvchi guruh a'zolari orasida oldingi bahs guruhida qatnashgan o'quvchilari bo'lgan yangi guruh tuzadi. Yangi guruhda ishtirokchilar o'z guruhlarida qilgan ishlarining natijalarini muhokama qiladilar.

Ushbu metod guruh a'zolarining faolligini oshiradi. Ularning har biri qisqa fursat davomida bahs ishtirokchisi bo'lishi bilan birga, ma'ruzachi vazifasini ham bajaradi.

1. Mashg'ulot oldidan o'qituvchi 6 ta stol atrofiga 6 ta o'rindiqliq qo'yib chiqadi.

3. O'quvchilar o'z o'rinlarini egallab bo'lganlaridan so'ng o'qituvchi bahs mavzusini e'lon qiladi (guruhlar uchun vazifalar bir xil yoki bitta masalaning turli jihatlariga tegishli bo'lishi mumkin).

Barcha guruh a'zolari masalaning shartini to'g'ri tushunganligiga ishonch hosil qigach, savollarga javob beradi va agar ishtirokchilar yordamga muhtoj bo'lib qolsalar, ularga qo'shimcha ko'rsatmalar beradi.

5. Belgiiangan vaqt tugag. anidan so'ng o'qituvchi yangi guruhlar tuzadi. Bunda har bir guruhda oldingi bahs guruhlaridan albatta bittadan vakil ishtirok etadi.

“Ilon izi ” texnologiyasi

yoganabazaviytamoyilgaasoslangano'quvguruhlari,
ma'lumbirsohadao'rganilyatganma'lumbirsohadao'rganilayatganmavzuboyicha
harbira'zosiekspertbo'ladigan,kooperativguruhlargabo'linadilar (1- bosqich).

The diagram shows a sequence of shapes arranged in three rows. The shapes are circles, triangles, and rectangles. Arrows indicate a flow from top to bottom. The sequence starts with a circle in the top row, followed by a triangle, a rectangle, a circle, a triangle, and a rectangle. This pattern continues in the middle and bottom rows, with arrows connecting the shapes in a specific sequence.

barcha a'zolarining o'rganilayotgan mavzu to'liq hajmda o'zlashtirishidan iborat.

1-bosqich. Kooperativ guruhlar (materialni taqsimlash)

2-bosqich. Ekspert materialini o'rganish va ta'lim berishga tayorgarligi.

3-bosqich. Kooperativ guruhlar (bir-birini o'qitish va tekshirish)

«Ilon izi» texnologiyasining bajarilish sxemasi quyidagicha:

Ishning 1-bosqichi. Ekspertlar, xuddi shu savollarni o'rganayotgan kooperativ guruhlarining boshqa a'zolari bilan guruhlarda uchrashadilar. Ular o'zlarining savollarini birgalikda ishlab chiqadilar va ushbu axborotni o'zlarning kooperativ guruhlariga a'zolariga samarali usullarini rejalashtiradilar.

Ishning 2-bosqichi. Ekspertlar o'zlarining kooperativ guruhlariga qaytadilar. Ular, o'rganib kelgan materiyallarini, o'zlarining kooperativ guruhlariga a'zolariga bayon qiladilar va ularni o'rgatishga kirishadilar. Guruhning barcha a'zolari bitta natijaga erishadilar, ya'ni mavzuni to'liq holda egallaydilar.

So'ngra, guruh a'zolari olgan bilimlarini o'zaro tekshiradilar. Barcha mavzu bo'yicha olingan bilimlarni, guruhning har bir a'zosi orqali butunligiga baholish sodir bo'ladilar. Bunda, ta'lim oluvchilar, yo barcha o'quv guruhining savollariga javob beradilar yoki testlarni bajaradilar va hokazo.

"Aqliy hujum" - muammolarni hal qilishdagi qo'llanadigan anchagina mashhur metoddir, uning nomini rus tilida "mozgovaya ataka", inglizchasiga "brainstorming" deb ataladi.

Bu usul katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talaba shaxsini ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

To'g'ri tashkil etilgan aqliy hujumning amaliy afzalliklari ko'p. Faqat bunda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- Jumlalar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas.
- Har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan holidir.
- Mantiqiy fikrlardan ko'ra fantastik yoki tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muhimroq.
- Fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi.
- Bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchining deb ajratilmaydi, ya'ni ular muallifsizdir.

Aqliy hujum usulining texnologik xaritasi.

Ish bosqich-lari va mazmuni	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchi
1-bosqich tayyorlov	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni natijalarni, baxolash mezonini shakllantiradi	
2-bosqich Kirish	Mavzuning maqsad, natija va baholash mezonini e'lon qiladi. Aqliy hujum usuli maqsadni amalga oshirish usuli ekanligini tushuntiradi. Berilgan muammoni bayon qilib, boshlash to'g'risida buyruq beradi.	
3 - bosqich G'oyalarni kiritish	G'oyalarni magnitafon yoki videolentaga, qogoz varag'iga yoki doskaga yozib olishni taklif qiladi.	Muammoni yechish buyicha g'oya va takliflar haqida mulohaza yuritadilar.
4 - bosqich Tahlil	Taklif qilingan baholash mezonlaridan kelib chiqqan holda ilgari surilgan g'oyalarni tahlil qilishni tashkil etadi.	Bildirilgan g'oyalarni, takliflarni guruh bo'lib tahlil qiladilar. Eng qulay va maqsadga muvofiqlarini aniqlaydilar.
5-bosqich Yakun yasash,	O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'ziga baho berishlari mumkin

Sinkveyn usuli

J.Still, K.Meredit, Ch.Templning «O'qish va yozish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun» dasturida o'quvchi va talabalar faolligini oshiruvchi, ularning tanqidiy fikrlashini o'stiruvchi qator usullar ko'rsatib o'tilgan. Shulardan ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

“Sinkveyn” metodi. “Sinkveyn” so'zi fransuzchadan olingan bo'lib, “besh qadam” so'ziga to'g'ri veladi. Sinkveynda narsa yoki hodisa haqidagi fikr qisqa ko'rinishda ifodalanadi. Sinkveynda she'rdagi o'xshagan 5 qatarga ma'lumotlar yoziladi.

1. Birinchi qatorda mavzu bir so'z bilan (odatda ot bilan) ifodalanadi.
2. Ikkinchi qatorda mavzuga juda mos keladigan ikkita sifat beriladi.
3. Uchinchi qatorda mavzu 3ta xarakterni bildiruvchi fe'l bilan foydalaniladi.
4. To'rtinchi qatorda temaga doir muhokama etuvchilarning hissiyatini ifodalovchi jumla tuziladi. U to'rt so'zdan iborat bo'ladi.
5. Beshinchi qatorda mavzuni mohiyatini ifodalovchi bitta so'z beriladi. U mavzuning sinonimi bo'ladi.

Buni sxematik ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Muammo nomi_____

Sifat _____

Harakat_____

Hissiyotni ifodalovchi jumla_____

Mohiyatning yangicha ifodasi_____

Namuna:

O'qitish

Og'ir, qiyin

Xarakter, chidash, intilish

Yangi bilim avvalgisiga bog'lanadi

O'rgatish

Ta'lim

Uzluksiz, ixtiyoriy (majburiy).

O'rgatadi, yo'l ko'rsatadi, ruhlantiradi.

Hayotdagi eng yorug' chirog'!

Bilim.

Sinkveynlar quyidagi hollarda juda foydali bo'ladi:

- Murakkab axborotni sintezlash uchun vosita sifatida;
- O'quvchilar tushunchalarining yig'indisini baholash vositasi sifatida;
- Ijodni taqdim etilishining vositasi sifatida.

Sinkveyn ma'lum mavzu o'rganilgandan so'ng tuzilsa, uning asosiy xususiyatlari, mohiyatlari tushunilib, yakunlanadi. Sinkveyn materiallar ustida o'ylashga, murakkab axborotni sintezlashga va uni uzoq xotirada saqlashga yordam beradi. Ijodiy ishlash imkoniyati kelib chiqadi

Insert usuli.

Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin.

Bu esa odam nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi

- + - yangi axborot
- - bilganlarimga zid keladi
- ? - meni o'ylantirib qo'ydi.

Matnni insert usulida o'rganganda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin

«V»	« - »	« + »	« ? »
«ha» - o'qiganlarin gizdan aniq bilgan yoki bilaman deb o'ylagan ma'lumot	«manfiy» - o'qiganlaring iz, bilganlaringiz ga qarama- qarashi ma'lumot	«musbat» - o'qiganlaringiz orasida siz uchun yangi bo'lgan ma'lumot	«savol» - o'qiganlari- ngizdan siz uchun tushunar-li bo'lmagan yoki shu haqda ko'proq narsa bilishni istagan ma'lumot

"Insert" strategiyasi metodi - Ushbu strategiya o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha talabalarning muayyan tushunchalarga ega ekanliklarini aniqlash va ularda mavzuga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ishni bajarish tartibi:

- Kichik guruhlar tuzilib, ular nomlanadi;
- Har bir guruhdan o'zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid yozma fikr bildirish so'raladi;
- Talabalar fikr va mulohazalarini qog'ozga yozib borishadi;
- O'qituvchi matnning mazmuni nfodalangan taqdimotni namoyish etadi;
- Talabalar bu matn va o'zlari bildirgan fikrni qanchalik o'xshashligi va farqini maxsus belgilar bilan qayd etadilar;
- Har bir kichik guruh a'zolari ushbu topshiriq bo'yicha ma'lumot berishadi.

“Venn diagrammasi” metodi.

Ushbu metod o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi.

Metod o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu metoddan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishga foydalanish yanada samaralidir.

“Venn diagrammasi” metodi 2 va 3 jihatlari hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taxlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. “Venn digrammasi”- grafik ko'rinishda bo'lib olingan natijalarni umumlashtirib ulardan bir butun xulosa chiqarishga ikki va undan ortiq predmetni tahlil qilish va o'rganishda qo'llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo'ladi.

“Venn diagrammasi”ni amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. O'quvchilar (sheriklari bilan) ikki doirani to'ldiradilar. Har bir doiraga ikki tushuncha e'tiborli tomonlari sanab o'tiladi.

2-bosqich. O'quvchilarni kichik guruhlariga(4-5 kishidan iborat) birlashtirib diagrammalarni taqqoslaymiz va to'ldiramiz.

3-bosqich. Kichik guruh o'quvchilariga bu tushunchalarning umumiy xossalarini aniqlashni taklif etamiz.

4-bosqich. Biror bir guruh vakili har bir tushunchaning o'ziga xos tomonlarini o'qiydi. Boshqalar zarurat bo'lganda uni javobini to'ldiradi.

5-bosqich. Boshqa guruh vakili ikki tushunchani birlashtiruvchi(umumiy) xususiyatlarini o'qiydi. Boshqalar zarurat paydo bo'lganda bu javobni to'ldiradilar.

Xulosa

Interfaol metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi. Bu metodlarninig o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog vao'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi bilan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan o'quv texnik vositalari, kompyuter, masofali o'qish, turli texnikalardan foydalanish bilan belgilanadi.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tug'ulishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi o'quvchi-talabalarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emotsional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchi-talabalarning asabiy zo'rliqlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Innovatsion texnologiyalar o`quv jarayonida” M.T.Eshmurotov.
Toshkent-2011.
2. “O`qitishning yangi pedagogik texnologiyalari” A.H. Nazirov.
Toshkent-2008
3. “Pedagogik texnologiya asoslari” Navoiy Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika kafedrası
4. www.google.uz va www.ziyonet.uz internet saytlari.